

TONG



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2010-yil
19-aprel
N:16
(66765)

ISSN – 2010-6092

22-Aprel – Xalqaro
olamni asrash kuni!



DIQQAT!
DIQQAT!
«ONAJONIM TABIAT»
INSHOLAR TANLOVI
DAVOM ETMOQDA!

O'quvchilarning atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik holatni yaxshilash, atmosfera, yer va suv resurslarini zararli chiqindilardan muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ibratli ishlardagi faolligini oshirish, qo'ying-chi, ekologik ta'lim-tarbiyani maktab partasidanoq boshlash, yosh avlodning murg'ak qalbida ona tabiatga mehr, muhabbat uyg'otish maqsadida:

O'zbekiston ekologik harakati hamda Respublika bolalar va o'smirlar gazetasi «Tong yulduzi» hamkorligida «Onajonim tabiat» mavzuida insholar tanlovini o'tkazadi.

Tanlov shartlarini eslatib o'tamiz:

1. Maktab qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi faoliyati haqida ma'lumot;

2. O'zlari yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiati, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga oid fikr-mulohazalar;

3. Tabiat mavzuida insho yozib yuborishlari lozim. (Suratlar, rasmlar ilova qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.)

Insholar shu yil 15-mayga qadar «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga yuborilishi kerak.

Manzilibiz:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks: 100129. e-mail: tong1924@bk.ru

Telefonlarimiz: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks: (99871) 244-38-10

«Onajonim tabiat» insholar tanloviga, deb yozing.

Tanlov 2010-yil 5-iyun –
Butunjahon atrof-muhit kunida yakunlanadi.

G'oliblar

Diplomlar hamda qimmatbaho
sovg'alar bilan taqdirlanadilar.



Bugungi o'zbek bolasi qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob topgandirsiz?!

Jahon adabiyoti namoyandalari

DEMOKRIT

Aziz bolalar!

Keyingi paytlarda tahririyatimizga kelayotgan xatlarda Demokrit haqida ma'lumot berishimizni so'rab murojaat qilayotganlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bugun shu iltimosingizni hisobga olib, yunon faylasufi haqida to'xtalishni lozim topdik. U milodiy sanadan oldingi 460-360-yillar oralig'ida yashagan. Badavlat oila farzandi bo'lgani bilan umr bo'yi faqirona hayot kechirib, shahar tashqarisidagi sag'anada yashagan, uning ellikka yaqin asarlar yozgani bizga ma'lum. «Inson tabiati to'g'risida», «Maqsad haqida», «G'oyalar haqida» kitoblari mashhur va ma'lumdur.

«Nafaqat yovni yengganlar, balki o'z nafsi ustidan hukmronlik qila olganlar eng mardlardir», degan edi faylasuf.

Bu o'rinda sizlarga yana bir narsa haqida ma'lumot berib o'tish kerakki, u yaltiroq mis qalqonni quyoshga tutib, ko'zlarini ko'r qilgan. Bu tasodifmi yoki atayin sodir etilganmi? Bu savolga har xil javoblar mavjud.

Uning yurtdoshi Mark Tulliy Sitseronning fikricha, Demokrit atayin o'zini so'qirlikka mahkum etgan. Chunki ko'z aldaydi, faqat ong vositasida fikr yuritib, tabiatni mushohada etish va anglash kishiga ko'proq zavq bag'ishlaydi, deb hisoblagan u.

JAVOB TOPA OLASIZ

Ha, ha, albatta, javob topa olasiz. Sizlarga Demokrit hayotidan voqea va bir so'zni eslatib, ularga javob topishingizni so'raymiz. To'g'ri javoblarni esa gazetamizning keyingi sonlarida e'lon qilamiz.

Eron shohi Daroning sohibjamol malikasi vafot etgach, qayg'uga botibdi va faylasufdan uni tiriltirib berishni so'rabdi.

Demokrit shu qiyin savolga qanday javob qaytargan, deb o'ylaysiz?

Sarhadsiz fazoda men kabi sanoqsiz ... mavjud.

Uch nuqta o'rnida qanday so'z bo'lishi mumkin?

SAODAT tayyorladi

HAYRATGA SOLISH OSONMAS



Poytaxtimizdagi 167-maktabda maha yigirma yildirki, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan biologiya fani o'qituvchisi Nigora Sobirovani ana shunday ustozlar sirasiga kiritsak bo'ladi. Har bir darsini noan'anaviy tarzda, ko'rgazmali qurollar asosida o'tgani bois, o'quvchilarning bu fanga qiziqishi bo'lakcha.

Mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablarida bo'lgani kabi mazkur bilim dargohida ham Prezidentimiz I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari bo'yicha fakultativ darslar o'tilyapti. Nigora opaning bu asar bo'yicha interfaol uslubdagi noan'anaviy darslari bahs va munozaraga boy tarzda o'tadi. Ustoz o'quvchilari ongida, shuurida milliy madaniyatimiz, ma'naviy boyliklarimiz, otabobolarimizdan qolgan qadriyatlarimizga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga intiladi. Bu go'zal yurt, muqaddas zamin faqat bizga atalganligi, uni avaylab-asrab, kelajak avlod-

larga ham meros qoldirishimiz lozimligini bot-bot eslatadi.

–Farzandlarimiz millatimiz kelajagi, ertamizning egalardirlar. Shunday ekan, ularni nafaqat bilimli, balki ma'nan yetuk, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash biz – ustozmurabbiylarning ham burchimizdir, – deydi Nigora opa kuyunchaklik bilan.

O'z kasbini hayotining mazmuni deb biladigan, bor bilimi va tajribasini shogirdlaridan ayamaydigan Nigora opadek mehdirdaryo ustozlarimiz shogirdlari qalbga ilm ziyosini sochib, komillikka eltuvchi yo'llarini yoritib turaversinlar.

AZIZA

Bugungi kun yoshlari bilimdon, zukko, o'z huquqlarini yaxshi biladigan, zamonaviy texnikani mukammal egallagan talabchan avloddir. Bunday yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni biror narsa bilan hayratga solish oson ish emas. Bu ish o'z kasbining fidoyisi, fanining bilimdoni bo'lgan ustozlarninggina qo'lidan keladi.

ERTAMIZ EGALARI

«Barkamol avlod yili»ga bag'ishlangan shunday nomdagi adabiy-musiqiy xayriya tadbiri Toshkent shahridagi Xlebushkina nomli 22-«Mehribonlik uyi»da bo'lib o'tidi.

Tadbirda Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi direktori, professor O'rozali Toshmatov, taniqli shoir Yamin Qurbon, Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy metodik va axborot markazi qoshidagi «Durdona» folklor-etnografik ansambli badiiy rahbari, xonanda Mahfuza Boymirzayeva, yosh xonanda Iroda Qurbonova, Mansur Quryazov rahbarligidagi «Jayhun» xalq qo'g'irchoq teatri jamoasi hamda Abdulla Qodiriy nomli Toshkent davlat madaniyat instituti talabalari ishtirok etdilar.

«Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchilari uchun milliy qo'g'irchoqlar ko'rgazmasi, qo'g'irchoq spektakli hamda san'atkorlar ijrosida konsert namoyish etilib, ta'sischi tomonidan tayyorlangan esdalik sovg'alari topshirildi.

Muhammadjon QOZOQBOYEV



DARS XONANGIZ BORMI?

Aziz o'quvchilar! Har biringiz uy vazifasini tayyorlash uchun kamida yarim soat vaqt ajratasiz, shundaymi?

Ba'zida darslaringiz ko'payib ketsa, 1 – 1,5 soat vaqtiniz bir zumda o'tib ketganini ham payqamay qolasiz. Shunda ko'z nuringizni asrash maqsadida bir necha qonun-qoidalarga rioya qilishni unutmang.

Uy vazifalarini tayyorlayotganingizda, siz o'tirgan stolga yorug'lik chap tomondan tushishiga e'tibor qarating. Stol ustida faqatgina kerakli narsalar turishi lozim. Ko'zingiz tez toliqib qolmasligi uchun qulay joylashtirilgan stol lampasidan foydalaning.

Eng asosiysi, dars tayyorlayotgan vaqtinizda xayolingizni jamlab, qunt bilan o'qishga odatlaning. Ana shundaygina uy vazifalaringizdan doimo a'lo baholar olasiz.

Nargiza ABDULLAYEVA

HISSASI KATTA



Assalomu alaykum, hurmatli «Tong yulduzi» gazetasi jonkuyarlari! Men sizlarga uzoq Surxon vohasidan maktub yo'llayapman. Bahorning eng go'zal bayrami Navro'z ayyomimiz muborak bo'lsin! Gazetangizning har bir sonini maroq bilan o'qib boraman, tengdoshlarim she'rularidan ilhomlanib, o'zim ham she'rular yozaman.

Maktabimizda o'tkazilgan «Ijodkor o'quvchi» ko'rik-tanlovida, «Yangi avlod – 2010» Bolalar ijodiyoti festivali hamda «Yosh qalamkashlar» tanlovlarida qatnashib, munosib o'rinlarni oldim. Qo'lga kiritgan ozmi-ko'pmi yutuqlarimda qadrdon gazetamning hissasi katta.

Gulruxsor LUTFULLAYEVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi
70-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

«GAZET - PAZET

Qaysi kuni avtobusda bir o'smir boshida tik turgan momoga joy bermay, ko'pchilikning g'ashiga tegdi. Ortda o'tirgan otaxon oxiri chidamay:

«Gazet-pazet o'qiysanmi, bolam, o'zingdan kattaga joy bersang-chi. Yo men momongga joyimni bo'shatib beraymi?» deya tanbeh berdi. Shunda ham u bola anchagacha bezrayib turdi, faqat boshqalarning qistovi bilan, o'shanda ham noilojlikdan joyidan turib ketdi.


Gazetamizni qo'lga olgan o'smir, aziz bolajon, yana bizni yomon otliq qilmoqchimisiz, yana o'sha eski gapmi, deya balki bizdan norozi bo'larsiz. Aslo unday emas. Sizlarda ayb yo'q.

Bir paytlar kattalarga joy berish sira buzilmas an'anasi edi. Bu an'anani yana to'la joyiga qaytarish uchun


«Falonchi aybdor» deyishdan oldin, o'zimiz fidoyilik haqida o'ylashimiz joiz emasmi?!

Birgina shu voqea to'xtalishimiz sizga biroz erish tuyular, balki. Xatoning kattakichigi bo'lmaydi. Hech joyda «katta xato», «kichik xato» deyilmaydi.

Arzimagan narsaga beparvo qarash salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bolajonim, dunyoda sizning tarbiyangizdan nozik ish yo'q, albatta. Shuning uchun ham mamlakat sizning taqdiringizni o'ylab, hech narsani ayamayapti. Vatanningizda sizning kamolotingiz uchun yaratilayotgan imkoniyatlar shunchalik ko'pki, bularni ko'rib turgan kattalar sizga ich-ichlaridan havas qiladilar. Ana shu g'amxo'rliklardan to'g'ri xulosa chiqarayotgan tengdoshlaringiz xoh ilm-fanda, xoh sportda, xoh boshqa sohada bo'lsin, zafarlar quchib, yurt nomini



AQLLI KOMPYUTERLAR



Amerikaning «Intel Korporeyshn» korporatsiyasi olimlari inson fikrini o'qiy oladigan kompyuter dasturini yaratdilar.

Ushbu dastur kiritilgan kompyuterlar odamning nima haqida o'ylayotganini 90% to'g'ri topmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, mazkur dastur yordamida kompyuterlarni sichqonchasiz, to'g'ridan-to'g'ri miyadagi o'ylar orqali boshqara olish mumkin. Kelgusida esa bu dastur eshitishida hamda tilida nuqsoni borlarga ham qo'l keladi.

UYQUSIZLIK OQIBATI

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, tunda tiniqib uxlamaydigan bolalar yoshlari ulg'ayganda, jiddiy muammolarga duch keladilar.

News BCM xabarlariga ko'ra, Aydaxo shtatidagi universitet olimlari 386 nafar bolada tekshiruv o'tkazganlar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda uyqusizlik tez-tez buziladigan bolalar 11-17 yoshlarida ham uxlash vaqtida bezovta bo'ladilar. Bu esa kelgusida xotira susayishiga va kashandalikka ruju qo'yishga olib kelar ekan.





NONUSHTAGA BOG'LIQ YUTUQLAR

Olimlarning fikriga ko'ra, o'quvchilar erishayotgan yutuqlarda to'g'ri nonushta qilishning ahamiyati katta ekan.

Kun davomida tetik yurish, xotirani charxlash, darslarda faol qatnashish uchun ertalab iste'mol qiladigan mahsulotlarga e'tibor qaratish lozim. Tadqiqotchilar 21 nafar o'quvchida tekshiruv o'tkazganlarida, nonushtada tuxum iste'mol qilgan o'quvchilar 1 kun davomida tetik yurishlari isbotlangan. Shu bilan birga, bu o'quvchilar darslarda faol ishtirok etib, a'lo baholarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lganlar.

Sevara SA'DULLAYEVA, muallima



MILLIONER BOLA

Malayziyalik Muhammad Mavlim ismli bolakay yarim yilda 1 million yevro daromad qilib, ko'pchilikni hayratga soldi.

Avvallari dalada ishlab pul topgan o'smir, endilikda shaxsiy noutbugi orqali internetga kirib, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanmoqda. Muhammad ishlab topgan puliga AQSHning Garvard universitetida ta'lim olishni rejalashtirdi.

TEST SAVOLLARI

1. Belgining me'yordan ortiq ekanligini bildirgan sifat shakli...
A) oddiy daraja;
B) qiyosiy daraja;
D) ozaytirma daraja;
E) orttirma daraja.
2. Orttirma daraja hosil qiluvchi so'zlar...
A) g'oyat, nihoyatda, juda;
B) eng, bag'oyat, juda;
D) juda, eng, ortiq;
E) A va B javoblari to'g'ri.
3. «Dunyoda eng orzumand xalq o'zbek bo'lsa, ajabmas...»
Ushbu gapdagi sifat qaysi darajada?
A) oddiy;
B) qiyosiy;
D) kuchaytirma;
E) orttirma.
4. «Bo'yi mendan kattarog'-u, o'zi sap-sariq».
Ushbu gapdagi sifatlar qaysi darajada?
A) qiyosiy, orttirma;
B) qiyosiy, oddiy;
D) oddiy, orttirma;
E) orttirma, qiyosiy.
5. «Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi».
Ushbu gapda nechta sifat bor?
A) 3 ta;
B) 2 ta;
D) 4 ta;
E) 5 ta.
6. Sal, biroz, picha, nim so'zlari orqali sifatning qanday shakli hosil qilinadi?
A) ozaytirma;
B) qiyosiy;
D) orttirma;
E) kuchaytirma.

O'QIYSANMI, BOLAM?»

dunyo uzra tarannum etishmoqda. Ularning muvaffaqiyatlarini ko'rib, bugungi o'zbek bolasi qanaqa bo'lishi kerak, degan savolga javob topgandirsiz?! Bizga qizig'i, siz bu to'g'rida qanday o'ylaysiz? Ko'pchilik bo'lib, shu to'g'rida bir fikr yuritib ko'raylik. Fikrdan fikr tug'iladi. Chinakam to'xtamga kelsak, yutuq o'zimizniki bo'lishi shak-shubhasiz.

«Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdir», degan edi Prezident bobongiz.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq masalaning shu tomoniga yetarli e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasiga qaratilgan va qaratilayotgan e'tibor, yangi maktablar, ko'pdan-ko'p sport inshootlari – sanab sanog'iga yetmaysan. Bularning hammasi siz uchun, sizlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardir. Siz barkamol avlod sifatida shakllanar ekansiz, bu mamlakat yutug'i, istiqboli ham demakdir. O'n to'qqiz yilda biz shunchalik darajaga erishdik. Hali yillar keladi va bugungi g'amxo'rliklar, bugungi intilishlar yanada yuqori natija berib, sizlarning yutuqlaringizni ko'rib, bizlarning juda-

juda shodlanishimiz aniq. Shunday deyishga asosimiz bor. O'g'il bolalarni qo'ya turaylik, Barchinoy singillarimizning harakatlarini ko'rib, astoydil quvonmoqdami. Birgina misol: bir paytlar qachon bizdan gimnastikachi qizlar chiqadi, deb orzu qilardik. Ma'lumotlarga qaraganda, bugun mamlakatimizda to'qqiz mingdan ortiq qizlarimiz sportning shu turi bilan shug'ullanayotgan ekan. Albatta, bu yaxshi. Ammo hali bu yetarli deb ayto olmaymiz va ularning saflarini yanada ko'paytirish borasida bosh qotirayotgan fidoyilarning fikrlarini qo'llaymiz. Nafaqat shu sohada, balki boshqa sohalarda ham yigitlar bilan bir qatorda qizlarimizning dunyoning katta-katta maydonlarida g'oliblikni qo'lga kiritishlarini istaymiz. Va bunday sharafga erishib, yurt nomini olamga taratayotgan tengdoshlaringizdan minnatdorligimizni yashirmaymiz.

Ota-onasi olib bergan qimmatbaho uyali telefoni bilan maqtanadigan o'smirni hech kim yaxshi deb maqtamaydi yoki uzzu-kun kompyuter yonida o'tirib, jangari yo bo'lmasa, keraksiz filmlarni ko'rish bilan oltin daqiqalarini havoga sovurayotgan bolaning ertaga hech qanday foyda topmasligi aniq. Hayot – bu je-

degani. Umr – oqar daryo. O'tadi-ketadi. Xalqqa munosib farzand bo'lish ulug' va bebaho sharaf. Ana shu ulug'lik sizga yor bo'lsin, deymiz.

– Bu kim? – deb so'raydi otaxon.
– Yosh iqtisodchi! – deb javob qilishadi.
Qariya minnatdor yo'sinda bosh igr'ab qo'yadi.
– Bu kim?

– Yosh fermer, unisi yosh olim, bunisi yosh ixtirochi, berigisi yosh adabiyotchi, – deyishadi.

Otaxon «Balli!» deydilar mamnun bo'lib va «Barkamol avlod bo'lg'in!» deya duo qiladilar.

Yuqorida avtobusdagi voqeaga diqqatigizni qaratgan edik. O'shanda qariya: «Gazet-pazet o'qiysanmi o'zi?!» deya behuda ichak uzmagani edi. Bu uning «Savoding bormi?» degani edi aslida. Savodi bor odam obro'sini o'ylab, aql bilan ish tutadi. Aql bilan ish tutib, yurt olqishiga sazovor bo'layotgan insonlardan hamma faxrlanadi.

Kecha ertalab maktabdan qaytayotgan bolakay hassaga suyanib kelayotgan otaxonga odob bilan salom berib, qo'llaridan ushlab chorrahadan o'tkazib qo'ydi. Minnatdor qariya: «Baraka top, bolam, otangga, muallimingga rahmat!» dedi. Biz ham ana shunday doimo olqishga sazovor bo'lishingizni tilaymiz!

O'ZBEKXON

Zohidjon Shukurovni maktabimizda vasiylik kengashi tomonidan ta'xis qilingan «Nihol» stipendiyasiga loyiq topdik

Barkamol avlod – mamlakat kelajagi



Bugun Uchtepa tumanidagi 197-maktabda katta bayram. Iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilarning ixtirolari, ijodiy ishlarining namoyishi bo'lyapti. Tumanidagi barcha maktablardan o'quvchilar-u o'qituvchilar mazkur bilim dargohida o'tkazilayotgan kimyo, biologiya va fizika fan oyligi festivaliga to'planishdi.



HAYOT YO'LINING SARBONI

Dilorom Otamuhammedova, 197-maktabning oliy tafifi o'qituvchisi. 30 yildan buyon o'quvchilarga kimyo fanidan saboq berib kelmoqda.

– Festivalga taqdim etilgan har bir ixtiro egasi g'olib. Chunki o'quvchilarning fanga qiziqishi kuchli, ularda yangilikka intilish bor. Shuning o'zi yutuqdir, –deydi ustoz.

– Ixtirolar orasidagi 9-sinf o'quvchilari Dildora Ma'rupova, Muhabbat Ma'rupovanning «Yoritgich lampasida metallarning ishlatilishi» maketi, Sanjar Alimovning «Alkanlarning elektron tuzilishi» sxemasi, «Benzolning tuzilish formulasini yasashini»ni biser ko'rinishdagi ishlanmasi eng namunalari deb topilgani biz ustozlarni yanada mamnun qildi.



SIRLI OLAM SINOATLARI

Festivalda ishtirok etgan yosh tadqiqotchilarning bir-bridan mazmunli, turli ko'rinishdagi maketlari ko'rgazma zalini bezadi. «Elektron hovli», «Qomusiy allomalar» rasmlari, «Oqqush savollari», «Marjonlardan yasalgan daraxt», «Inson tanasidagi a'zolar», «Sirli olam sinoatlari», «Koinot sirlari», «Yoritgich lampasida metallarning ishlatilishi» kabi maketlar orqali

o'quvchilarning fan olamiga qiziqishlari guvohi bo'ldik. Kelgusida bu bolajonlardan buyuk kashfiyotchilar yetishib chiqsa, ajabmas.

Bu borada ularni o'z faniga qiziqitira olayotgan ustozlarning o'rni beqiyosdir.



«NIHOL» SOHIBI BO'LDIM

Yaqinda maktabimizda antiqa yangilik ro'y berdi. Qanday yangilik, deysizmi? Unda eshiting: Maktabimiz faollar zaliga birin-ketin direktorimiz va ustozlarimiz kirib kelishdi va rahbarimiz Dilbar opa so'z boshladilar.

– Aziz o'quvchilar! Orangizda sportga qiziquvchilar, fan sirlarini o'rganishga intilayotganlar, hunar egallayman, deya niyat qilganlar nihoyatda ko'p.

9-«D» sinf o'quvchisi Zohidjon Shukurov esa

she'riyat shaydosi. Bu o'quvchimizga ijodiy zafarlar tilagan holda uni maktabimizda vasiylik kengashi tomonidan ta'xis qilingan «Nihol» stipendiyasiga loyiq topdik. Endi u har oy 10.000 so'm miqdorida stipendiya oladi, – dedilar.

Bir nafas qarsaklar og'ushida qoldim. Mukofotni olar ekanman, boshim osmonga yetdi. Bu rag'bat meni va barcha tengdoshlarimni yanada ko'proq o'qishga va izlanishga undadi.

Zohidjon SHUKUROV, 9-«D» sinf o'quvchisi



Tengdoshlaring ijodi

Nafaqada bo'lganim uchun gohida zerikib, ko'chalarda aylanib kelishni yaxshi ko'raman. Tanish-bilishlarni ko'rib, subhatlashib, bahri diling ochiladi.

Bu gal ham shunday bo'ldi. Avtobusda ketayotgandim, nigohim haydovchiga yaqinroq o'rindiqda o'tirgan kostyum-shimi, bo'yinbog'i o'ziga yarashib turgan bolakayga tushdi.

Chamasi avtobusda chiptachi yo'q shekilli, uning vazifasini bolakay o'rnatib bajarimoqda edi. Beminnat dastyor topilganidan haydovchi ham mamnun.

Bir kishi: – O'g'lim, uzatib yubor, – deya yo'l haqi uzatdi va:



– Qaytimini o'zingga olaqol, – deya 100 so'mni bolakayga qayta uzatdi. Bolakay esa xuddi gunoh ish qilib qo'yganday qizarib ketdi va pulni olishdan qat'iy bosh tortdi. Boshqalar ham qo'shilib har qancha qistashmasin, u baribir ko'nmadi. Haligi odam chiqish eshigi tomon yurar ekan, uni boshini siladi:

– Senga yaxshi tarbiya bergan otanonangga rahmat!

Biz ham oriyatli, g'ururli bolakayga havas bilan qaradik.

Nasiba OCHILOVA, mehnat faxriysi



Dovud MURODOV, Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 115-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi

QUYOSH

Quyosh tog' ortidan Nurlarin sochdi. Quyvnoq bolalarga Bag'rini ochdi.

Lolalar qirlarda, Chapak chalishdi. Quyoshni entikib, Qarshi olishdi.

Men quyoshni ko'rib, «Quyoshjon!» dedim. O'sha topda juda, Baxtiyor edim.

SIZ GO'ZALSIZ, QIZLARJON!



Zabo XUDOYBERDIYEVA, Farg'ona tumanidagi 51-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi

Siz o'sha – To'maris, siz – Barchinoysiz, Porloq yulduzlar-u, osmonda oysiz, Husn, malohatga, chiroyga boysiz, Zulfiya qizlari, gullolalari.

Nazokat bobida sizlar yagona, Barchangiz so'zlaysiz xo'b shotirona, Gulisiz, Laylosiz, Zuhro, Marjona – Zulfiya qizlari, gullolalari.

Laylisiz Majnunning aqlini olgan, Donosiz momolar merosi qolgan, Sizni maqtayverib shoirlar tolgan, Zulfiya qizlari, gullolalari.



Mumtozbeqim ABDURASHIDOVA, Xorazm viloyati, Urganch tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

O'SIB KAMOL TOPGAYMAN

Ertak bilar bir jahon Hammadan ham mehribon, Ranjitmayman hech qachon, Sizni munis onajon.

Tunni tonglarga ulab, Allalagan erkalab, Har so'zingiz bir maktab, Bilimdonim – onajon.

Hali navniholidayman, O'sib, kamol topgayman, Barcha mehnatlaringiz, Ishonchingiz oqlayman.

Baxtinga bo'ling omon, Eng yaxshim, Siz – Onajon!



Bitta qora bulutni, Boshqasi kelib «urdi». «Qars» etgan sado chiqdi, Qattiq shamollar turdi.

Bulut yig'lay boshladi, Yerga tomchi tashladi. Hammayoq bo'ldi-ku ho'l, Toshib ketay derdi ko'l.

Ukam hayron bo'lib der: – Bulut ham qo'rqqoq ekan, Qarang, qarang, akajon, Yana-chi, yig'loq ekan.

Kimlarni kuydirmas shahlo ko'zingiz, Lobarisiz, Dilrabo, Asal o'zingiz, Jannat mevasiga o'xshar yuzingiz, Zulfiya qizlari, gullolalari.

Havas-la boqishar, pahlavonlar ham, Shahlo ko'zlaringiz, hech ko'rmasin nam, Kun kelib sizdayin bo'laman men ham, Zulfiya qizlari, gullolalari.



«Onajonim tabiat» sahifasiga aslida juda ko'p xat kelardi. Shu nomdagi tanlovimiz e'lon qilindi-yu, maktublar soni ortgandan ortib ketdi. Bu esa o'quvchilarimiz orasida tabiat shaydolarining ko'pligi dalolati, shunday emasmi?! Bugun e'tiboringizga tengdoshlaringizning ana shunday maktublaridan havola qilyapmiz. Sizlardan ham maktublar kutib qolamiz.



buloqlar, yana bir tarafi qir-adirlar bilan qoplangan. Yonginasida Aydarko'l, tog' o'rmonlarida ming yillik archalar, pistazor, bodomzor, o'rikzor va olmozorlar yastanib yotibdi. Bu yerda

Orol muammosi dolzarb bo'lib turgan bir paytda ona tabiat bizga Aydarko'l ni in'om etdi. Aydarko'lning boshiga ham Orolning kuni tushmasligi uchun undagi qushlar, baliqlar, jonzotlar, o'simliklarni avaylab-asrashimiz, ko'paytirish chora-tadbirlarini ko'rishimiz lozim.

Biz bilamizki, yozning issiq kunlarida ko'l suvlari bug'lana boshlaydi va turli salbiy omillarni keltirib chiqaradi. Ularning oldini olish uchun ko'l bo'ylariga saksovu butalari ekishimiz, ko'l suvini ifloslanishdan asrashimiz lozim. Tabiat qo'nyida dam olganimizda, o'simliklarga ziyon yetkazmasligimiz, olov y o q -

chaqiruvchi kanserogen moddalar bor.

Tumanimiz Nurota qo'riqxonasi hududida joylashgan. Biz qo'riqxonaning ma'muriy binosida faoliyat ko'rsatayotgan «O'lkashunoslik» to'garagiga a'zomiz. Ustozlarimiz boshchiligida tabiatni asrash, yo'qolib borayotgan hayvonot, o'simlik, hasharot turlarini asrash haqida «Jonajon o'lkam tabiati», «Qushlar bizning do'stimiz» kabi ko'plab tadbirlar uyushtiramiz, sayohatlarga chiqamiz. Ayniqsa, Yong'oqlisoy hududida joylashgan ekoso'qmoq bo'yab qilgan sayohatimiz juda maroqli bo'ldi. U yerda tarixiy obida sanaladigan ming yillik Sharq sarv archasini tomosha qildik. Bu ulkan daraxtning diametri taxminan 8 metr, markaziy shoxining aylanasini 12 metr. Sarv ildizlari kavaklariga to'rt-besh kishi bemalol sig'adi.

Sayohat chog'ida olgan suratlarimni tengdoshlarimga ham ilindim.

Tabiatni onajon deb atashlari bejiz emas. Zero, onalarning mehri betimsol bo'lganidek, qahri ham juda qattiq bo'ladi. Shunday ekan, tabiatni onaday e'zozlaylik!


Darvoqe, yaqinda hayotimda quvonchli voqea ro'y berdi. «Nurota - Qizilqum» axborot markazini rivojlantirish, Global Ekologik Jang'armaning Kichik Grantlar Dasturi Loyihasi tashkillashtirgan «Jonajon o'lkam tabiati» insholar tanlovida qatnashib, final bosqichiga chiqdim. Ayni kunlarda «Yong'oqlisoy» ekologik so'qmog'ida o'tkazilishi kutilayotgan tanlovning final bosqichiga puxta hozirlik ko'ryapman.

Menga omad tilang, do'stlarim!

Sharofiy Shodiyabegim IBROHIM qizi,

Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 59-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

BIR O'LKA BOR...



Ona sayyoramizda tabiat go'zal, xushmanzara o'lkalar ko'p, ammo O'zbekiston atalmish ajib bir diyor borki, o'xshashi dunyoda yo'q. Ollahning nazari tushgan bu o'lkada to'rt faslning ziynati to'la-to'kis namoyon bo'ladi: yozi yozdek, kuzi kuzdek, qishi qishdek, bahori bahordek o'tadi. Axir sayyoramizda aholisi quyoshni sog'inib yashaydigan yoki jaziramadan azob chekadigan, umrida qorni ko'rman yoki qahraton sovuqdan qiynaladigan faqatgina ikki fasldan iborat iqlimli mamlakatlar ham bor-ku.

Men mana shu jannatmakon yurtning Jizzax vohasida joylashgan so'lim Xonbandi shaharchasida yashayman. Rivoyat qilishlaricha, Forish nomini Sohirqiron Amir Temur Parij shahriga qiyoslab qo'yg'an ekan.

Forishimizning bir tarafi purviqor tog'lar, tog' o'rmonlari, bir tarafi bepoyon cho'llar, bir tarafi mevazor bog'lar, poyonsiz uzumzorlar, zilol

o'ynoqlab yurgan alqorlar ham, ular bilan qo'shnichilikda yashaydigan to'ng'izlar, bo'rilar, tulkilar, jayronlar, toshbaqalar, ilonlar, burgutlar va laylaklar ham, noyob o'simliklardan tog' lolasi, rovoch, tatiran, anzur piyozi, so'g'd lolasi va archalar «Qizil kitob»ga kiritilgan.

masligimiz, chiqindilarni qoldirmasligimiz kerak. Axir birgina yelim idish besh yuz yilda chirydi.

Men kuz oylarida odamlar xazonlarni yoqishayotganining guvohi bo'lganman. Bu mutlaqo noto'g'ri. Axir yoqilgan xazon tarkibida inson salomatligi uchun xavfli har xil o'sma kasalliklarini

OLAM MENING TASAVVURIMDA

Moviy dengiz uzra sayohat qilishni kim ham yoqtirmaydi, deysiz! Ana, quvnoq Shilliqqurt ham uychasini yelkasiga ortib, yam-yashil yelkanida sayrga otlanibdi. Nima deb o'ylaysiz, shunaqasi ham bo'larmikan yoki bu Toshkent shahridagi 249-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi Otabek Mirfozilovning xayoliy tasavvuri mahsulimikan?




TABIAT AJOYIBOTLARI

Naqshdor chipor ilon O'zbekistonning qumli cho'llaridan tashqari deyarli hamma joyda yashaydi. U suvilonlar oilasiga mansub o'rtacha kattalikdagi ilon. Umumiy uzunligi 130 santimetrga yetadi. Boshqa chipor ilonlar singari baquvvat tanasi naqshdor, dumi ingichka, uzun, tangalari silliq bo'ladi. Boshi simmetrik joylashgan yirik qalqonchalar bilan qoplangan, umumiy rangi kulrang bo'ladi. Boshida ikkita qoramtir yo'l bo'lib, bu yo'llar gardonidan oldinga tomon yo'nalgan va burchak hosil qilib tutashgan bo'ladi. Burchak ichida xochsimon shakldagi dog' bo'ladi. Uning nomi ham shu naqshdan kelib chiqqan.

Baqalar, kaltakesaklar, mayda kemiruvchilar, qushlar va ularning tuxumlari bilan oziqlanadigan bu ilon qoyalarga, daraxt va butalarga o'r-malab chiqadi. Suvda ham bemalol suzib, kemiruvchilarning inlariga kirib oladi.

Barcha chipor ilonlar singari odamlar uchun xavfli emas, zarar yetkazmaydi.



MILLIY MULTIFILMLAR

TAQCHILMI?

Bir zamonlar hatto oq-qora tasvirli televizorlar ham qishlog'imizning o'ziga to'qroq sanoqli xonadonlaridagina bo'lardi. Shu

sababli, «Televizorimizda kecha falon multfilm bo'ldi, bo'ri quyunchani rosa qovlab ham yetolmadi!..» deya og'iz to'ldirib maqtanadigan jajji dugonalarimizga havas bilan qarardik. Qo'shimizning uyiga o'yin bahonasida televizor ko'rgani o'tar edik-da, keyin: «Biz ham o'z uyimizda, o'z televizorimizdan multfilm ko'raylik!..» deya ota-onamizga xarxasha qilardik.

Bularni eslamogdan murud shulkim, bugunning bolasini ilmi, ma'rifatli qilib voyaga yetkazishda, ushbu imkoniyatdan

oqilona foydalanolsak, ana shu maqsadga yo'naltirilgan multfilmlarning ahamiyati o'zgarib bo'ladi. Ammo ming afsuski, ilm-u ma'rifatga undovchi multfilmlar anqoning urug'idek kamyob. Borlarining ham sakson besh, to'qson foizi boshqa

tilda. Disk javonlarining bir chekkasida musofirdek sarg'ayib turgan o'zbekcha multdisklarni ham o'zbekcha deb bo'lmaydi. Sababi, yarmidan ko'pi teleekranlardan sifatsiz ko'chirilgan. Sheva, hatto ayrimlari ko'cha bolalarning jargon so'zlashuvida o'ta g'arib va nochor tarjima qilingan.

Bu matohtar bolalar tarbiyasiga uchun emas, aksincha, uning ziddiga xizmat qilishi h i mumkin.

«Muzlik davri – 1», «Muzlik davri – 2», «Sohibjamol va mahluq», «Tom va Jerri», «Sehrlan-

gan malika» va hokazo.

Birgina millatimizning mardlik timsoli bo'lgan «Alpomish» multfilmni olaylik. Nega dunyoga ibrat bo'ladigan bebaho durdona asarimiz asosida ishlangan multfilmimiz unchalik ta'sirchan emas? Men uni rus

ertaklari asosida ishlangan o'nlab multfilmlar bilan taqqoslangan holda mulohaza yuritayapman. Ona O'zbekistonimiz barcha jabhalarda dunyo xalqlari qalbidagi havas uyg'organicha dadil odimlamogda.

Muhtaram Prezidentimiz joriy yilni ulug' niyat bilan «Barkamol avlod yili» deb atadilar. Unutmaylik, barkamol avlod tarbiyasiga farzandlarimizning bolaligidanoq e'tibor qaratishimiz lozim.

Halima ALLAMURODOVA,
Sherobod tumanidagi
17-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Navro'zoyning notanish
qallig'i

Boychechak uning ko'z o'ngida turli qiyofalarda gavalana boshladi. Shunisi qiziqki, barcha qiyofalar bir-biridan yoqimtoy edi.

yong'oq, qand-qurs tashlayveradilar. «Boychechakchi»lar topganini o'rtada taqsimlab yeyishadi.

Navro'zoyning bor ko'rgiliklari aynan shu palladan – sovuqqa shamol tuynukdan «shuv-v» etib kirib kelishidan boshlandi. U o'z tanasida g'alati bir junjikishni his etayotganida, ajdarsimon qora tutun paydo bo'lib, ko'mirrang ko'zlarini unga lo'qqaytirdi. Uchi to'ziq dumini tagiga yig'ib olgach: «Ha, jinqarchaxon, taxtga o'tirgilari kepqoldimi?» deb guvrandi.

Navro'zoy yuragini bosib olib, sipolik bilan dedi:

– Eshitishimcha, Qish janoblari

chora topish mumkinmi?

Ayozzoda og'zining chetida tirjaydi:

– Chora yo'qligini tan olish – lapashanglik. Iloji yo'q, tartib shunaqa deb o'tirmasdan, doim dangal harakat qilish kerak.

Gapni tugatiboq, Ayozzoda o'sha «dangal harakat»ni amalda ko'rsatishga kirishdi. Uning ko'zlarini shishayotgan pufakdek olayib borgani sayin, sovuq ham zo'rayaverdi. Navro'zoy oldiniga titrashga tushdi, so'ng etlari bo'shshib, uyqu bosayotgandek tuyuldi, oxiri karaxtlangan tarzda turib qoldi. Faqat lablari damo-dam xiyol qimirlab qo'yar, kiprik qoqishlari o'ta sekinlashib ketgandi.

Ishni bitirgan Ayozzoda mamnun kekanglab, ortga qaytdi. Ikki yon-

Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq shoiri

gapni ilib ketdi Ayozzoda. – Qo'rqmang, vaqtinchaga karaxt qipqo'ydim, xolos. Navro'zoy ertaga taxtga o'tirolmasa, qarabsizki, mo'ysafid Qish ham o'z o'rnida, biz ham o'z amalimizdamiz.

– Baribir niyatingga yetolmaysan, qilvir, – qat'iy boqib so'zladi Kuntug'di ota. – Avliyolar ming yillar burun aytib qo'yishibdi, dushmanlar Navro'zoyni xushsizlantirsa, kezargon Boychechak ko'makka keladi, deb. Mana ko'rasan, Boychechak albatta keladi. Navro'zoy uning isini seziboq, hushiga qaytadi.

Ayozzoda qitmirona qiyaladi: – Boychechak kelolmasa-chi? Navro'zoyni karaxt qilishni uddalagan ekanmiz, o'sha kezargonni muzlatib tashlashgayam kuchimiz yetar?

Endi biron-bir kelishuvni taklif qilib

qolar deb turgan Ayozzoda Kuntug'di ota avzoyi buzilganicha

BOYCHECHAK

dagi qator-qator xonalar oralab ketgan yo'lakdan tutundek sirg'alib o'tib, Ko'ksaroy maydonchasiga chiqib bordi. Chiqqan zahoti, Kuntug'di otaga duch keldi. Avvaliga, Kuntug'di otaning tafti uni bug'lantirib yuborishi mumkinligidan cho'chib, shuvillab ko'zdan yo'qolishga chog'landi-yu, bu chol balki yaxshilikcha bitim tuzishga rozi bo'lar degan o'y bilan uzozroqda to'xtadi.

Kuntug'di ota: «Bu yoqda nima qilib yuribsan, muzbashara?» deya hadiklanib so'ragan edi, Ayozzoda: «Bittasini akashak qilish zarur bo'pqoluvdi, shu ishni qildik», deb burnini ko'tardi. Bundan Kuntug'di otaning bezovtaligi oshdi:

– Agar nevaramga tekkan bo'lsang...
– Boshqa kimgayam tegardim? – deb

yaqinlashayotganini ko'rib, butkul erib ketmasidan oldin «shuv-v» etib g'oyib bo'ldi. Uning dumidan tutishga ulgurolmay qolgan Kuntug'di ota shoshganicha Ko'ksaroy ichkarisiga qarab yurdi. Nevarasining xonasiga kirib borgach, seskanib to'xtadi.

Navro'zoy bir nuqtaga tikilgan kuyi, sopol qo'g'irchoqdek qotib turardi.



(Davomi bor)

(Boshi o'tgan sonlarda)



KEZARGON

Navro'zoy sochlariga oro berayotganida, xonaning torgina tuynugidan shovullab shamol kirgandek bo'ldi. Shamol o'zi bilan birga bolachoglar uzoq-uzoqlarda kuylayotgan jo'shqindan-jo'shqin qo'shiqning sadosini ham olib kelgandi.

Boychechagim, Boychechak,
Atir xumli gulpechak.
Yashirib qo'ysin atrini,
Opqochmasdan o'rgimchak.

Boychechagim shaylansin,
Ko'chani kezib aylansin.
Kelinchaklar qand bersa,
Bag'riga kirib joylansin...

Elda Navro'zoy hali bilmagan bir udum bor: bolalar boylam-boylam boychechaklarni mistovoqqa terib qo'shiq aytganlaricha, azali xonadondan tashqari, mahalladagi har bir uyga kirib chiqishadi. Ayollar mistovoqdan bir boylam gul olib, o'rniga turshak,

menga taxtni o'z ixtiyorlari bilan bo'shatayotgan emish.

– Miyasi aynib qolgan o'sha qariya nimalarni o'ylashi menga bir pul! – deb g'o'daydi sumbati sovuq qora bulut. – Kallasi joyida bo'lsa, tayyor taxtdan voz kecharmidi? U taxtdan ketsa, bizga o'xshaganlar ham amalidan mahrum bo'ladi. Shaxsan men bunga yo'l qo'yib bo'pman. Oxirgi askarim qolguncha jang qilaman! Buni men – nayzaboz izg'irinarlar laskarbohisini Ayozzoda aytayapman!

Bu po'pisalarning ostida ne maqsad yotganini tushunib yetgan bo'lsa-da, tepadan uchib tushayotgan toshni orqaga qaytarishga urinishdan nima foyda, deb o'yilagan Navro'zoy Ayozzodaga ko'zini jovdiratib boqdi:

– Azaldan belgilab qo'yilgan muddat bitganidan keyin, fasllar saroyida o'z-o'zidan o'zgarishlar bo'lib turishi barchaga ayon-ku. Shunday ekan, bu o'jarligingizdan qanday naf bor? Bo'lmasdan qolmaydigan ishga qarshi

TAASSUROTLAGA BOY BO'LDI

Davra suhbatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari Ulug'bek Muhammadiyev yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, ularga yetarlicha sharoitlar yaratib berish kabi muhim masalalar bugungi kunda davlat siyosati darajasida o'z yechimini topayotganligi, bu borada zarur huquqiy asoslar yaratilganligini ta'kidlab o'tdi.

Mirjalol UMAROV, Hamza tumanidagi 137-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

– Davra suhbatida «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga sharhlar» kitobining taqdimoti o'tkazildi. Qo'mita raisi Akmal Saidov bu

borada so'z yuritarkan, biz yoshlarning huquq va erkinliklarimiz va qonuniy manfaatlarimizni himoya qilishga qaratilgan bir qator qonunlar hamda O'zbekiston Bola huquqlari Konvensiyasining ikkita qo'shimcha protokoli va Xalqaro Mehnat Tashkilotining 138 va 182 Konvensiyalarining ratifikatsiya qilinganligini bilib oldim.

Yulduz HAMROQULOVA, Jizzax politexnika instituti talabasi:

– Bu kun men uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug'vor bino, qonunchilik to'g'risidagi ma'ruzalardan ko'p narsa oldim. Yoshlar mazmunli uchrashuvdan katta taassurot bilan qaytdilar.

**Zuhra MUHSIMOVA,
Zubayda MAMATQULOVA**

«TEMURIYLAR»
G'OLIB!

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Yunusobod o'qirijiy tillar akademik litseyida Amir Temur tavalludining 674 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.



Tadbirda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori, tarix fanlari nomzodi Erkin Nuriddinov, tarix fani o'qituvchisi Ra'no Ashurova va Obid Pirnazarovlar taklif etildi. Unda 103-guruh o'quvchilari «Turon», 106-guruh o'quvchilari «Temuriylar» nomi ostida bellashdilar. Bellashuv 4 shart asosida o'tdi. 1-shart tanishuv bo'lib, o'quvchilar o'zlarini she'riy yo'l bilan tanishtirdilar. 2-shartda ishtirokchilar hay'at a'zolari tomonidan berilgan savollarga javob berishdi. 3-shartda «Temuriylar» guruhi ijrosida «Sohibqiron» spektaklidan lavha hamda «Turon» guruhi o'quvchilari tomonidan «Temur tuzuklari» asari asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

«Sardorlar bellashuvi» deb nomlangan 4-shart esa yanada qiziqarli bo'lib, har bir guruh sardori Amir Temur o'g'illaridan ellikdan ziyodini yoddan aytdilar. Tadbirda yig'ilganlar o'quvchilarning bilimdonliklariga havas qildilar.


Nihoyat, so'z navbati hay'at a'zolariga berildi. Bellashuvda «Temuriylar» guruhi g'olib bo'lsada, «Turon»chilar ham xafa bo'lishmadi. «Yengilgan kurashga to'ymas», deganlaridek, Sohobqiron haqidagi bilimlarini yanada boyitib, kelasi safar albatta g'olib bo'lishga ahd qilishdi.

O'quvchilar ajoyib sovg'alar va «Maqto'v yorliq»lari bilan taqdirlandilar.

Shahlo XOLMATOVA



Sog'lom bo'lay desangiz



Muhammadxon 6-umumta'lim maktabining 7-«A» sinfidagi o'qiydi. O'zbekiston ochiq chempionatida Oyama kiokushinkay karate-do bo'yicha o'smirlar o'rtasida 40 kilogramm vazn toifasida birinchi o'rinni egallagan.

QIZIL
BELBOG'LI
BOLA

Samarqandning Narpay tumanida Uchariq qishlog'i bor. U yerda sportchi bolalar juda ko'p. Jahon chempioni bo'lish orzusida musobaqalarda toblanayotgan tengdoshingiz Muhammadxon Toshniyozov ulardan biri. Qishloqda nafaqat bolalar, balki kattalar ham sportni sevishadi. Maktab stadionida tez-tez bo'lib turadigan mahallalararo, sinflararo musobaqalarni tomosha qilish uchun ishqiboz ota-onalar ham muxlislikka to'planadilar. Muhammadxonning dadasi Olim aka ham musobaqaning daragini ehsitsa bo'ldi, o'g'li Muhammadxon bilan uch chaqirim masofani bosib, tuman markaziga ketaveradi. Hammaning ota-onasi bahslarni o'tirib kuzatsa, Olimjon aka tik turib, hayajon bilan faxrlanib tomosha qiladi. G'ururlansa arziyidida, Muhammadxon tuman, Samarqand shahri va O'zbekiston ochiq birinchi musobaqalarining mutlaq g'olibi, oltin medal sohibi. Murabbiyi Umidjon Tog'ayevning umidli shogirdlaridan biri. «Barkamol avlod – 2010» sport musobaqalarining tez-tez o'tkazilishi esa yosh sportchining medallari salmog'ini oshirmoqda.

Biz esa yurtimizda Muhammadxondek iqtidorli bolalar uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilganidan mamnun bo'lib, o'tayotgan har bir kuningiz mazmunli o'tishi tarafdorimiz.

MEHNATLAR
MEVASI

Bibioysha Bo'riyeva Qamashi tumanidagi 71-maktabning 8-sinfidagi o'qiydi. U Chirchiq Olimpiya zacciralari kollejida o'tkazilgan O'zbekiston birinchiligida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Sportning og'ir atletika turi bilan shug'ullanishni o'n ikki yoshida boshlagan qizaloqqa omad erta kulib boqdi. Bibioyshadan bu haqda so'raganimizda:

– Mening ilk murabbiyim, otam – sport ustasi Tohir aka Parmonov bo'ladilar. Dadamdan mashg'ulotlarga jiddiy yondashish kerakligini o'rgandim. Sport bilan shug'ullanish shunchaki havas uchun emas, ishtiyoq bilan astoydil shug'ullanishni o'rgatdilar. Dastlab tuman musobaqalarida, so'ng viloyat, endilikda respublika va Osiyo chempionatlarida ham qatnasha boshladim. Kuni kecha poytaxtda bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtasidagi bahslarning ham uchta bronza medali meniki bo'ldi. 53 kilogrammgacha vazn toifasidagi qizlar bellashuvida qatnashib, dast ko'tarishda 59 kilogramm, siltab ko'tarishda 75 kilogramm natijani qayd etdim. Umumiy yakunda 134 kilogrammni tashkil etib, medallar shodasiga ega bo'ldim. Ilk yirik musobaqadagi yutug'imdan xursandman. Yutuqlarim bilan dadamning mehnatlarini oqlay olayotganimdan boshim ko'klarga yetdi. Tumanimizda og'ir atletika bo'yicha men kabi chempion qizlar talaygina. Ulardan biri Dilafro'z Qandahorova ertaga birinchi bor chempionat ishtirokchisiga aylanadi. Dugonam ham bo'sh keladigan qizlardan emas, albatta g'olib bo'lib qaytadi.

Ma'mura MADRAHIMOVA

Sog'lom bo'lay desangiz

«O'ZBEKISTON»NING O'QUVCHILARGA TUHFASI

O'quvchilar ko'pyillardan buyon muqovasida turli xorijiy kinofilmlardan olingan suratlar aks ettirilgan daftarlarga yozihsa odatlanib qolishgandi. Endilikda mafkuramizga yot, hech bir tarbiyaviy ahamiyati bo'lmagan suratlar aks etgan turli bichimdagi yozuv daftariidan foydalanishga chek qo'yilmoqda.



Yaqinda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot matbaa-ijodiy uyi muqovasida buyuk allomalarimiz, xalqimizning ardoqli siymolari, adiblari suratlar aks ettirilgan o'n ikki varaqli bir turkum yozuv daftarlari ko'p ming nusxada chop etdi. Ular o'quvchilarning fikr doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan, o'zida milliy qadriyatlarini mujassam etgan yozuv daftarlari.

Nashriyotda keyinchalik oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarda talabalari uchun 24, 48, 96 varaqli umumiy daftarlarni ham ana shunday yo'nalishda, ko'p ming nusxada chop etish rejalashtirildi.

SURATDA: yangi yozuv daftarlarning namunalari.

Mahallamiz guzarida Navro'z bayrami har qachongidan ham tantanali boshlandi. Mahallamiz kayvonisi Zumrad xola hamma ishga bosh-qosh. Qo'li-qo'lga tegmayotgan onaxonning yoniga yugurib kelgan nabirasi bir narsa dedi shekilli, onaxon shoshib o'rmidan turib, uyi tomon yo'naldi. Uning

o'g'limga aytaman, bir ko'rsin, qo'lidan kelsa, tuzatib berar.

Bu gapdan ko'pchilikning ensasi qotganday bo'ldi. Gulshanoy kelinning to'ng'ich o'g'li endi yettinchi sinfda o'qiyotgan bo'lsa, katta ustalar qiladigan ishga aqli yetarmidi?.. Zumrad



mashg'ul yuradigan kamtaringina Abdulaziz bir zumda mahallaning qahramoniga aylandi.

Bu bolakay menga ham yoqib qoldi. Otasini ko'chada uchratganimda, o'g'lga havasim kelganini aytdim. U kishi bunday maqovlarni ko'p eshitganmi deymen, mayingina jilmayib qo'yaqoldi.

Abdulaziz 3-sinfidan buyon shahar ijodiyot markazidagi raketamodelchilar to'garagiga qatnaydi. Markaz rahbari Najmiddin aka mashg'ulotlar orasida oyna kesish, duradgorlik, san-texniklik ishlarini ham o'rgatarkan.

Xalqimizda «Yigit kishiga yetmiş hunar ham oz», degan naql bor. Bunga amal qilganlarning noni hamisha butun bo'ladi.

Yusuf FAYZULLO

NONI BUTUN BO'LADI

indamay ketib qolishi hammani hayron qoldirdi. Davradan jo'shqin kayfiyat ko'tarilganiday edi. Hartugul ko'cha boshida Zumrad xola ko'rinib, hamma yengil tortib, davra yana jonlanib ketdi.

– Yuvinish xonasidagi issiq suvning jo'mragi ishdan chiqibdi. Ming marta aytaman shularga, qarab turinglar, deb, aksiga olib ustalarini ham topib bo'lmayapti. Endi to shuni tuzatguncha guzar bilan uyni o'rtaasida chopaman shekilli, – dedi norozi ohanda.

Kim u dedi, kim bu dedi, ammo hech kimdan jo'yali bir gap chiqmadi. Shunda bir chetda indamaygina o'tirgan Gulshanoy opa o'rmidan turdi:

– Opoqi, agar mayli desangiz,

xola ham ishonqiramaygina onabolani boshlab, yana uyiga qaytdi. Tabiiyki, davradagilarning asosiy mavzusi Zumrad xolaning buzilgan jo'mragi-yu, uni o'zicha tuzatmoqchi bo'lib ketgan mushtdakkina Abdulaziz bo'lib qoldi. Nihoyat, chorak soat deganda xola boshchiligida onabola qaytib kelishdi. Ishi bitgani yuz-ko'zidan ko'rinib turgan Zumrad xola hammaning oldida Abdulazizni uzoq alqadi.

– Baraka topkur, bu bolaning qo'li gul ekan. Bir zumda jo'mrakni tuzatib berdi. Boshqa joylarini ham mahkamlab, ko'nglimni xotirjam qildi.

Birov borligini ham payqamaydigan, doim nimalar bilandir

BO'SH O'TIRMAY, BO'SH QOTIR!

Tasvir, ko'rinish	Tiniq shafqat	Fransuz fi-zigi	"Bo'lin-mias" zairra	Armaniston futbol jamoasi	Dunyo to-moni	Orzuni fioda-lovchi	Xur-sand-lik, zavq	Gaz fioda-da	Nasrla-sulola	Hur-lik
Suv guli				O'tmish, qadim	Yapo-niya shahri	Yevropa raqsi-dagi na-rakat	No-ta		Stuykila-lar och-rashuvi	Vietnam daryosi
Suvse-var don yebish-turuvchi	Serb yozuv-chisi			K o'ch-ma sirk	O'kinch	Yozuv qoldasi	Av-val		Firtbol jamoa (Fransiya)	Forobiy
	Or-zu	Vollida-lar qo'shig'i	Fransuz tarix-chisi	Son, miqdor Rang	Say-yora	Xalq	Ko'ra-tish ol-moshi	Artur Konan (adib)	Xur-sand	Qamish to'sh-ma
Yer o'l-chovi				"Sholno-ma" qah-ramoni	Zirhli harbiy rexnika	Dast-labki		...nor	Aziz na'mat	Fursat
Billim sohibi	Hind ipagi turi		Bosh-qarish	Fikrni ovozda ifoda-lash	Arab alif-bosi harfi	Se-rob			lik hosil	To'ri turi
			Qo'lda to'qil-gan mato		Suv parran-dasi	Juft raqam			Vazn o'chovi	Bosh-lik
Uy nay-voni	Erkak ismi	Urma-soz	...tor	Tabiat hodi-sasi		Quruv-chi, usta				

Baxt belgisi ilm va aqlidir.
Mahmud Qoshg'ariy

Aql – er kishiga ming uquvning boshi bo'lar.
Yusuf Xos Hojib

Foziljon ORIPOV tuzdi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA, Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbar RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinasari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Dilmurad RAHMATILLAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@bk.ru www.tongyulduzi.uz Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092
Adadi - 74093 Buyurtma N: 9304